



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 6-yanvar

13-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona tumani hokimligi boshqaruvi tuzilmasiga

o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-som farmoni va 2024-yil 2-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-413-som Qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdagi 690-11-0-Q/24-somli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-som farmoni va 2024-yil 2-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-413-som Qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdagi 690-11-0-Q/24-somli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg'ona tuman hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Farg'ona tuman hokimining 2024-yil 21-noyabrdagi 307-11-163-Q/24-som qarorining 2-bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Farg'ona tumani hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari I.Xo'janazarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Yusupov bilan birgalikda tuman hokimligi boshqaruv apparati xodimlarining shtatlar jadvalini ushbu qarorga muvofiq qayta ko'rib chiqsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi v.v.b




**ABDURAXIMOV
OTABEK.NEMATOVICH**

Farg'ona tuman hokimining
2025-yil 6-yanvardagi
13-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Farg'ona tusmani hokimligi boshqaruv apparatining

TASHKILIY TUZILMASI



* - Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soniga kiritilmaydi.